

## TA'LIM JARAYONIDA LOYIHA METODI VA UNING AMALIY AHAMIYATI (GEOGRAFIYA FANI MISOLIDA)

**Juraxujayev Davronxo'ja Daverxo'ja og'li**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Geografiya kafedrasi o'qituvchisi*

*E-mail: [ddjuraxujayev@mail.ru](mailto:ddjuraxujayev@mail.ru); ORCID: [0000-0003-4418-3702](https://orcid.org/0000-0003-4418-3702)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada loyiha metodining ta'lim jarayonidagi ahamiyati va geografiya fanida uning qo'llanilishi o'rganilgan. Loyiha metodi o'quvchilarning amaliy va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga, mustaqil fikrlash va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Loyiha metodi, geografiya ta'limi, amaliy ko'nikmalar, ekologik muammolar, hamkorlikda ishlash, tanqidiy va analitik fikrlash, amaliy yechimlar.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается важность проектного метода в образовательном процессе и его применение в обучении географии. Проектный метод способствует развитию практических и творческих навыков учащихся, а также формированию умений самостоятельного мышления и работы в команде.*

**Ключевые слова:** *Метод проектов, географическое образование, практические навыки, экологические проблемы, сотрудничество, критическое и аналитическое мышление, практические решения.*

**Abstract:** *This article examines the importance of project-based learning in the educational process and its application in geography. The project method contributes to the development of practical and creative skills, independent thinking, and the ability to work collaboratively.*

**Keywords:** *Project method, geography education, practical skills, ecological issues, collaboration, critical and analytical thinking, practical solutions.*

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning amaliy va ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda loyiha metodi alohida o'rin tutadi. Loyiha metodi ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, jamoada ishlash qobiliyati va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim usulidir. Loyiha metodining asosiy jihati shundan iboratki, o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'laydilar va o'z tadqiqotlari orqali yangi bilimlar yaratadilar [3,4] Ushbu metodni qo'llashning asosiy maqsadi – nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash orqali o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishdir.

J.Dyui (ing. John Dewey), U.Kilpatrik (ing. William Heard Kilpatrick) kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan loyiha metodining nazariy asoslari ta'lim jarayonida o'quvchini markazga qo'yish va unga mustaqil tadqiqot imkoniyatini berish g'oyasiga asoslangan [2].

Loyiha ishlarini bajarish o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi [1,5]:

- *Analitik fikrlash: muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topish;*

- *Jamoada ishlash: birgalikda maqsadga erishish uchun kommunikatsiya va hamkorlik qobiliyatlari;*

- *Ijodiy yondashuv: yangi g'oyalarni yaratish va ularni amalga oshirish.*

Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy dunyo talablariga javob beruvchi malakali kadrlarni shakllantirishda yordam beradi. Ayniqsa, geografiya fani doirasida loyiha metodi ta'lim jarayonini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Geografiya ta'limi nafaqat nazariy bilimlarni oshirish, balki tabiiy jarayonlarni tahlil qilish va ularni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi [6].

Shu sababli, geografiya fanida loyiha metodi keng qo'llanilishi ta'lim jarayonining sifatini oshirish va o'quvchilarning amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishda dolzarb pedagogik vosita hisoblanadi.

Geografiya darslarida loyiha ishlaridan foydalanish o'quvchilarni o'rganish jarayonining faol ishtirokchilariga aylantiradi. Loyiha metodlari orqali o'quvchilar hayotiy muammolarni tahlil qilish, amaliy yechimlar ishlab chiqish va ularni taqdim etishni o'rganadilar. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va jamoaviy ishlash kabi zarur ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu tariqa, loyiha ishlarini geografiya darslarida samarali qo'llash o'quvchilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi

Quyida 8-sinf geografiya fanidan "Sanoat va ekologik muammolar" mavzusida tuzilgan Loyiha ishi topshirig'ini misol tariqasida keltirib o'tamiz.

**Mavzu:** O'zbekistonda sanoat va ekologik muammolar.

**Topshiriq:** Sanoat va ekologik muammolar mavzusida **loyiha ishi** tayyorlash.

Guruhlar	Topshiriqlar	Bajariladigan ishlar
1-guruh	Sanoat va ekologik muammolar haqida ma'lumot yig'ish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Mamlakatimizdagi sanoat korxonalari va ularning atrof-muhitga qanday ta'sir qilishi haqida ma'lumot to'plang.</li> <li>- Aholi o'rtasida (maktab yoki mahalla hududida bo'lishi mumkin) sanoat ifloslanishi yoki boshqa ekologik masalalar bo'yicha so'rovnoma o'tkazing (atrof muhitni eng ko'p ifloslaydigan sanoat tarmoqlari haqida savollar beriladi).</li> </ul>
2-guruh	Atrof-muhitning ifloslanishi va uning oqibatlarini tahlil qilish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Sanoat chiqindilari havo, suv va tuproqni qanday ifloslantirishi haqida ma'lumot yig'ing.</li> <li>- Atrof-muhitni ifloslanishi aholi salomatligiga qanday ta'sir qilishini o'rganing (mutaxassis bilan suhbat olib boring).</li> </ul>
3-guruh	Atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga qaratilgan	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Atrof-muhitni sanoat va boshqa chiqindilar bilan ifloslanishini oldini olishga qaratilgan davlat dasturlari haqida ma'lumot</li> </ul>

	dasturlar haqida ma'lumot to'plash	to'plang.
4-guruh	Ekologik xabardorlikni oshirishga qaratilgan plakat tayyorlash	- Atrof-muhit ifloslanishi bilan bog'liq ekologik muammolar aks etgan plakat tayyorlang. Bu plakatlarda sanoat ifloslanishining atrof-muhit va odamlarning hayotiga qanday ta'sir qilishi tasvirlangan bo'lishi kerak.
5-guruh	Ekologik xabardorlikni oshirishga qaratilgan sahna ko'rinishi tayyorlash	- Atrof-muhit ifloslanishi bilan bog'liq ekologik muammolar aks etgan qisqa sahna ko'rinishi tayyorlang. Unda sanoat ifloslanishining atrof-muhit va odamlar hayotiga qanday ta'sir qilishi tasvirlangan bo'lishi kerak.

O'quvchilar mazkur loyiha ishini tayyorlash orqali quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkin.

✓ O'zbekistonning sanoat va ekologik muammolarini chuqur o'rganadi hamda mahalliy ekologik masalalarni yechish imkoniyatlarini izlashda ishtirok etadi.

✓ Ekologik xabardorlik darajasini oshirishga yordam beruvchi ijodiy ishlarni tayyorlash orqali ekologik madaniyat rivojlanadi.

✓ Jamoaviy faoliyat orqali o'z g'oyalarini ifodalash va ularni himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, loyiha metodi o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini yaratib, ularning mustaqil fikrlash, jamoaviy ishlash va innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Xususan, geografiya fanida ham loyiha metodining qo'llanilishi ta'lim jarayonining sifatini oshiradi va o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Журахужайев Д. Роль проблемного обучения в формировании современных навыков у учащихся //Предпринимательства и педагогика. – 2023. – Т. 5. – №. 4. – С. 127-134.

2. Kilpatrick W. H. The project method //Teachers College Record. – 1918.

3. Navro'zov I.N. Loyiha metodi asosida o'qitishning asosiy aniq maqsadi va samaradorligi // Ta'lim va innovation tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 2021-yil №6. URL: <https://interscience.uz/index.php/home/article/view/493/383>.

4. Наримбетова З. А., Абдиримова И. К. Лойиха таълимининг хусусиятлари ва аҳамияти // Экономика и социум. 2021. №5-2 (84).

5. Turgunova F., Abdurahimovna R. S. The Importance of Project Work and Methods of Work in Teaching English //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2023. – Т. 5. – №. 5.

6. Xamroyeva, F. A. (2023). Juraxujayev DD Geografiyada fanlararo integratsiya Uslubiy qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashriyoti, 84.